

KURSANTLARDA IRODAVIY SIFATLARNI NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada kursantlarda irodaviy sifatlarni namoyon bo'lishining dinamik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Unga ko'ra, dastavval irodaviy sifatlar borasidagi xorij olimlarining izlanishlari keltirilgan. Ayniqsa, kursantlarda irodaviy sifatlarni shakllanganligini aniqlash maqsadida eksperimental tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: iroda, irodaviy sifatlar, motiv, motivatsiya, o'zini o'zi boshqarish, psixik boshqaruvi, aqliy qobiliyat, intellektual, emosional, axloqiy, maqsadga intiluvchanlik, qat'iyatlilik, qaysarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У КУРСАНТОВ

Аннотация. Целью статьи является определение динамических особенностей проявления произвольных качеств у курсантов. По его словам, в первую очередь представлены исследования зарубежных ученых о волевых качествах. В частности, проводились экспериментально-исследовательские работы с целью определения сформированности произвольных качеств у курсантов.

Ключевые слова: воля, волевые качества, мотив, мотивация, самоконтроль, психический контроль, умственные способности, интеллектуальные, эмоциональные, моральные, целеустремленность, решительность, упрямство, самостоятельность, инициатива.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEMONSTRATION OF VOLUNTARY QUALITIES IN STUDENTS

Abstract. The article aims to determine the dynamic characteristics of the manifestation of voluntary qualities in cadets. According to him, the researches of foreign scientists on volitional qualities are presented first. In particular, experimental research works were carried out in order to determine the formation of voluntary qualities in cadets.

Key words: will, volitional qualities, motive, motivation, self-control, mental control, mental ability, intellectual, emotional, moral, goal-oriented, determination, stubbornness, independence, initiative.

Ma'lumki, irodaviy soha inson shaxsiy va kasbiy rivojlanishining barcha muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Iroda inson aqliy faoliyatining alohida funksiyasi bo'lib, har qanday qiyinchiliklarni tizimli ravishda engib o'tishi bilan belgilanadi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarning nazariy tahliliga ko'ra, iroda muammosi jahon psixologiyasining eng munozarali masalalardan biri sanaladi. Ko'p yillik tadqiqotlar davomida falsafa va psixologiya fanida iroda tushunchasini ilmiy jihatdan talqin qilish bir necha bor o'zgarishlarga yuz tutgan.

Aksariyat tadqiqotchilar uchun umumiy narsa – bu iordaning motivasion tarkibiy qismiga e'tibor beriladi. Iroda psixologiyasi borasidagi izlanishlarni tahlil qilish asosida ikkita asosiy yondashuvni, ya'ni motivasion va o'zini o'zi boshqarishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Motivasion yondashuvga ko'ra, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, L.I.Bojovich, D.N.Uznadze, A.V.Petrovskiy, R.Dekart, T.X.Gobbs, V.Vundt, K.Levin, X.Xekxauzen, E.Tollman va boshqalar rag'batlantirishga qaratilgan iroda funksiyasi va uning motivasion tarkibiy qismiga e'tibor beradilar.

O‘zini o‘zi boshqarishga asoslangan yondashuviga ko‘ra (A.Ben, G.Ribo, V.Jeyms, S.Sherington, I.M.Sechenov, V.K.Kalin, V.I.Semevanov va boshqalar) irodaviy harakat iroda vositasi bilan amalga oshiriladigan dinamik tomonini belgilab berishi ta’kidlanadi.

Rus psixologiyasida iroda psixik boshqaruvning maxsus shakli deb tushungan olimlardan biri I.M.Sechenov hisoblanadi. Uning ta’kidlashicha, inson ongi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqarishni aks ettirishi bilan tavsiflanadigan ma’lum bir asab markazlari faoliyatlarini orqali amalga oshiriladi. S.L.Rubinshteynning ta’kidlashicha, irodaning manbai ehtiyojning faol jihatni bo‘lib, u o‘ziga jalb qilish, xohish yoki istak shaklida ifodalanadi [4].

Shuningdek, iroda tushunchasi ichki tartibga solinadigan motivatsiya sifatida qaraladi. V.A.Ivannikov irodaviy harakatni unga yaratilgan qo‘sishimcha rag‘batlantiruvchi shaxs tomonidan ongli ravishda amalga oshiriladigan harakat deb ataladi. Binobarin, ixtiyoriy o‘zini o‘zi boshqarish zarurati harakatga turtki paydo bo‘lmaganda yuzaga keladi. V.A.Ivannikov irodaviy o‘zini o‘zi boshqarishni “Shaxs tomonidan ijro etilishi uchun qabul qilingan, ammo unga nisbatan rag‘batlantirilmagan harakatga undovchi o‘zini o‘zi boshqarishning shaxsiy darajasi” deb ta’kidlaydi. Shuning uchun iroda uning nuqtai nazariga ko‘ra, “o‘z motivlari va ma’nolarini ixtiyoriy ravishda boshqarish”dir [2].

Normativ yondashuv doirasida V.K.Kalin inson tomonidan o‘z psixik jarayonlarini tartibga solishda va irodani harakatlar maqsadini ob‘yektidan sub‘yekt holatiga o‘tkazishda irodaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi [3].

F.Ye.Vasilyuk irodaning mohiyati va funksiyalarini muhokama qilish asnosida iroda insonning ajralmas shaxsning “organi” bo‘lib, uning faoliyati alohida faoliyatda emas, balki “hayotiy rejani amalga oshirishga” xizmat qiladi [1].

Marsinovskaya irodani tashqi va ichki to‘sirlarni engib, ongli ravishda belgilangan maqsad yo‘nalishida harakat qilish qobiliyati sifatida belgilaydi. Ixtiyoriy harakatlar ongning maqsadi va unga erishish istagi, shuningdek, o‘zi tabiatning dastlabki g‘oyasi sifatida tavsiflanadi.

Shu o‘rinda L.M.Vekkerning nazariyasiga ko‘ra, iroda hulq-atvorni o‘zboshimchalik bilan boshqarishning eng yuqori shakli bo‘lib, unda boshqarish muayyan harakatlarning intellektual, emosional, axloqiy va umumiyligi, ijtimoiy ahamiyatli mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Jumladan, J.Piaje irodani affektiv va motivasion jarayonlar deb hisoblaydi hamda shu bilan birga affektiv va kognitiv jarayonlarning birligini tan oladi. Uning fikrlariga ko‘ra, irodaning vazifasi voqealarni va kelajakni, ya’ni ularning xatti-harakatlarini oqibatlarini baholash orqali erishilgan zaif, ammo ijtimoiy ahamiyatiga ega motivatsiyani kuchaytirishdan iborat.

Aksariyat tadqiqotchilarining fikrlariga ko‘ra, turli yosh davrlarida ma’lum irodaviy fazilatlar, birinchidan, iyerarxik tarzda shakllanishi mumkin, ikkinchidan, ular xatti-harakatlarida u unchalik yaqqol ko‘rinmaydi, degan fikrga qo‘silishadi.

Ma’lumki, universitetdagi o‘qish jarayoni o‘siprinlikning ikkinchi davriga yoki etuklikning birinchi bosqichiga to‘g‘ri keladi. Mazkur davr shaxs xususiyatlarini shakllantirishning murakkabligi bilan tavsiflanadi. Bu masala B.G.Ananyev, A.V.Dmitriyev, I.S.Kon, V.T.Lisovskiy, Z.F.Esarova va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida keng doirada tahlil qilingan. Jumladan, kursantlik davrida maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik, qaysarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati kabi sifatlar sezilarli darajada kuchayadi.

Universitetda tahsil olayotgan kursantlarda irodaviy sifatlar shakllanishini o‘rganishga nisbatan intilishning kuchliligi hozirgi quyidagi tadqiqotlar jarayonida yaqqol sezilmoqda. Ayniqsa, kursantlik davrida o‘quv faoliyati bilan bog‘liq yuzaga keladigan qiyinchiliklarda irodaviy sifatlar namoyon bo‘lish darajasini aniqlash bo‘lajak mutaxassis shaxsini har tomonlama chiniqtirishga imkoniyat yaratadi. Buning asosiy sababi shundaki, yoshlarda kechadigan ijtimoiylashuv va individuallashtirish jarayonlarining yagona oqimi sifatida individualizatsiya jarayoniga ko‘proq jalb qilingan (D.I.Feldshteyn). Ular maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan mustaqil faoliyatga kiritilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, irodaviy sifatlar – bu qiyinchiliklarni engishda shakllanadigan xarakter bilan bog‘liq aniq vaziyatlarda namoyon bo‘luvchi shaxs xususiyatidir. Irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi faqat inson motivlari bilangina emas, uning qadriyatlari, ustanovkasi, nerv tizimida namoyon bo‘luvchi tug‘ma xususiyatlarga ham bog‘liqligini ta’kidlash joizdir.

Aynan bir insonning o‘zida irodaviy sifatlar turlicha ijobiy va salbiy bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda irodaviy sifatlar turlicha namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot ishimizda belgilangan vazifalar nuqtai nazaridan dastlab kursant lik davrida irodaviy sifatlar o‘rtasida aloqadorlik hamda shaxs o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish tiplari bilan munosabat xususiyatlarini tekshirishdan iborat. Buning uchun sinaluvchilar guruhida “Shaxs irodaviy sifatlarini o‘rganish” (V.M.Chumakov) metodikalari o‘tkazildi. Tadqiqot natijalaridan olingan ma’lumotlarni yaqqol ifodalash maqsadida jadvalda aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval**Irodaviy sifatlarning kursant lik davrida namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari (1-3 kurslar misolida)**

Irodaviy sifatlar	Kurs	N	O‘rtacha arifimetik	t - mezon	P≤
Mas’uliyatlilik	1-kurs	140	5,65	,317	,752
	3-kurs	137	5,59		
Tashabbuskorlik	1-kurs	140	5,91	-2,012	,045
	3-kurs	137	6,40		
Jur’atlilik	1-kurs	140	3,44	-1,161	,247
	3-kurs	137	3,64		
Mustaqillik	1-kurs	140	3,36	-,045	,964
	3-kurs	137	3,37		
Matonatlilik	1-kurs	140	5,33	-,261	,795
	3-kurs	137	5,39		
Qat’iyatlilik	1-kurs	140	3,54	-,363	,717
	3-kurs	137	3,59		
G‘ayratlilik	1-kurs	140	5,96	-2,259	,025
	3-kurs	137	6,45		
E’tiborlilik	1-kurs	140	4,28	-1,674	,095
	3-kurs	137	4,56		
Maqsadga intiluvchanlik	1-kurs	140	6,57	,172	,864
	3-kurs	137	6,53		

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 1-kurs va 3-kurs kursantlari guruhida tashabbuskorlik bilan ($t=-2,01$; $p\leq 0,05$) qarama-qarshi munosabatga ega ekanligi aniqlandi. Bundan ko‘rinadiki, kursantlik davrining dastlabki bosqichlarida tashabbuskorlik kuchli darajada namoyon bo‘lishi tabiiy hisoblanadi. Tashabbuskorlik biror-bir ishni shaxsan boshlab yuborish demakdir. Tashabbuskorlik ko‘rsatish ma’lum ko‘rsatmani kutib o‘tirmay, biror-bir maqsadni ilgari surib, uni engish uchun yo‘l va vositalarni tanlash hamda shu maqsadga mustaqil ravishda erishishi demakdir. Tashabbuskorlik, odatda, tevarak-atrofdagi sharoit hamda ijtimoiy hayot talablarini tez va mohirlik bilan hisobga olish, kelajakni, yangilikni oldindan ko‘ra olish hamda kutilgan vazifalarni bajarishda faol ishtirok etish hisoblanadi. Shaxs sifatiga aylangan tashabbusga intilish uning harakatlarini aniqlashtiruvchi tashabbuskorlikdir. Tashabbuskorlik axloqiy jihatdan jasurlik, ya’ni odamning o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni o‘ziga olishida namoyon bo‘ladi. Shuning bilan birga kursdan kursga o‘tishi jarayonida kursantlar guruhida tashabbuskorlikning kamayib borishi kuzatiladi. Buning uchun kursant tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar doimiy ravishda rag‘batlantirilishi hamda qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Agar har qanday kursant tashabbusi o‘z vaqtida e’tirof etilmasligi, ularda yangi g‘oyalar, fikrlarni amalga oshirishga nisbatan istaklarining yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Irodaviy sifatlardan g‘ayratlilik bo‘yicha natijalariga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, ($t=-2,25$; $p\leq 0,05$) qarama-qarshi ahamiyatli munosabat mayjudligi kuzatiladi. Darhaqiqat, kursant shaxsida g‘ayratlilikni ortishi ularda o‘zi o‘qigan fanlarga va kasbiy faoliyatiga nisbatan ishtiyoq ham kuchayadi. Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, kursantlarda g‘ayratlilikning ortishi ham yuqori kurslarga borib ancha pasayganligini ko‘rish mumkin. Bu ham bo‘lsa, ularda yoshga bog‘liq ravishda irodaviy sifatlarni rivojlanishi bilan tavsiylanadi. Shuningdek, bu jarayon har doim ham barcha kursantlarda samarali kechmasligi tadqiqot natijalaridan aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinadiki, kursantlarda irodaviy sifatlarni shakllanishi ulardagi yosh xususiyatlar, tanlangan kasbiy faoliyatlar bilan uzviy bog‘liq. Shuningdek, kursantlarda

- 286 irodaviy sifatlarni rivojlanishida yoshga bog'liq farqli ravishda differensial yondashuv mavjudligi kuzatiladi. Ayniqsa, kursantlar faoliyatida tashabbuskorlik, g'ayratlilikning namoyon bo'lishida ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Василюк Ф.Е. Психология переживания: Анализ преодоления критических ситуаций / Е.Ф.Василюк – М.: Изд-во МГУ, 1984-200 с)
2. Иванников В.А. Психологические механизмы волевой регуляции / В.А.Иванников-СПб.: Питер, 2006 с-208
3. Калин В.К. «Волевая регуляция деятельности»: автореф. Док дис психол. Наук / В.К.Камен-Тбилиси, 1989-36
4. Рубинштейн С.Л. Основы общий психологии / С.Л.Рубинштейн-СПб.: Питер, 2001-705 с